



HISTORY OF KHOJA KHUROSON MAHALLA SHAHRISABZ DISTRICT KASHKADARYA REGION

Javohir Jabborov

Researcher at Yangi Asr University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khoja Khorosan, Kapkon, Gavushmon, Mangit, Dormon, Tukhliboy, Rabot, Shahrisabz neighborhoods.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: The article explores the history of the Khoja Khorosan neighborhood in the city of Shahrisabz, Kashkadarya region, its ethnic composition, customs, and socio-economic life. The research is based on the oral history of the local population, statistical data, and archival materials.

QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ TUMANI XO‘JA XUROSON MAHALLASI TARIXI

Jabborov Javohir

Tadqiqotchisi Yangi asr universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Xo‘ja Xuroson, Kapkon, Gavushmon, Mang‘it, Do‘rmon, Tuxliboy, Rabot, Shahrisabz mahallalari.

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati Shahrisabzning Xo‘ja Xuroson mahallasi tarixi, uning etnik qatalami, urf-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti o‘rganilgan. Tadqiqot mahalliy aholining og‘zaki tarixi (oral history), statistik ma‘lumotlar, arxiv materiallari asosida olib borilgan.

ИСТОРИЯ МАХАЛЛИ ХОДЖА ХУРОСОН ШАХРИСАБЗСКОГО РАЙОНА КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Джавохир Джабборов

Исследователь Университета «Янги аср»
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬ

Ключевые слова: Ходжа Хуросон, Капкон, Гавушмон, Мангит, Дурмон, Тухлибой, Работ, махалли Шахрисабза.	Аннотация: В статье рассматривается история махалли Ходжа Хуросон города Шахрисабз Кашкадарьинской области, её этнический состав, традиции и обычаи, а также социально-экономическая жизнь. Исследование проведено на основе устной истории местного населения, статистических данных и архивных материалов.
--	---

Kirish. Mahalla dunyo hamjamiyatida takrorlanmas mustaqil institut sifatida azaldan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Lekin yurtboshimizning oilaviy ajrimlar, yoshlar salomatligi, erta tug'ruqlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq muammolar haqida qayg'urib, "Oila – muqaddas, degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir", – degan so'zlari nafaqat mahalla faollari, balki har bir aholini sergaklikka chaqiradi.

Asosiy qism. Dunyo tamaddunida o'z o'rniga ega 2700 yildan ortiq yoshni qarshilagan Shahrisabz hududidagi mahallalar tarixini o'rganish bugungi kun yoshlarda yurt tarixi, uning qadriyatlari va uning kelajagiga bo'lgan ishonchini ortirishi shubhasiz. Shunday ekan yurtimizdagi har bir shahar, har bir osori atiq va har bir mahallaning tarixini o'rganish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, Abdulla Qodiriyning "Moziyga qarab ish tutmoq xayrlidir", degan fikri bizni mushohadaga chorlaydi.

Qadimiy va navqiron Shahrisabzning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tarixiy mahallalarning o'rni beqiyos. Shunday tarixiy mahallalardan biri bu Xo'ja Xuroson Mahalla fuqorolar yig'ini hisoblanadi. Mahalla Shahrisabzning g'arbiy qismidan ikki km masofada joylashgan. Hududi Shimoldan Kitob tumanining "Oq Suv " daryosi bilan, Shimoliy-g'arbdan Shahrisabzning "Navro'z" mahallasi bilan, janubiy-g'arbdan Shahrisabz tumani "Duxchi" qishlog'i bilan hamda Sharqdan shahar markazi "Guliston" mahallasi bilan chegaradosh.

Mahalla hududi Shahrisabz shahri markaziga yaqin joylashganligi hamda O'rta Osiyo temir yo'lining Qarshi-Kitob filialining kesib o'tishi, Toshkent-Termiz - M-39 xalqaro avtomobil yo'li Shahrisabz-Chim-Qarshi avtomagistral shossesining o'tishi, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotiga salqmoqli hissa qo'shgan.

Mahallaning geografik o'rni: Shahrisabz shahri joylashuviga ko'ra soylikda joylashgan bo'lsada, uning Sharq, janub va shimol tomonlari Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Biroq Xo'ja Xuroson mahallasining relyefi tekislikdan iborat. Mahallaning barcha maydoni sug'oriladi. Yeri asosan tipik bo'z tuproqli yerdan iborat.

Mahallaning iqlimi kontinental bo'lib, yozda 300 va undan yuqoriga ko'tarilsa, qish faslida esa -18-200 gacha sovuq bo'lishi mumkin. Shuningdek, shahrisabz tumani va mahalla hududi dengizlardan uzoq joylashganligiga qaramay, bahor faslida yog'ingarchilik ko'p bo'lgan paytlarda namlik 500-600 mm, ayrim paytlarda 800-900 mmga yetadi. Bu esa mo'l hosil yetishtirishda katta imkon beradi. 1976-77-yillardagi kun isib ketib, yog'ingarchilikning kam bo'lganligi namlik darajasini 200-300 mmga tushirib, suv tanqisligini keltirib chiqarganligi tumanning dehqonchilik hisobotlarida o'z aksini topgan. 1987-yil 1-yanvar holatida paxta ekiladigan maydon 1270 gektar, bug'doyzor 351 gektar, sabzavot ekiladigan maydon 63 gektar, beda ekiladigan maydon 304 gektarni tashkil etib, 1876 gektar yaylov hisoblanib, aholi asosan u yerda chrvachilik bilan shug'ullanishgan.

Muhokama. Mahalla tarixiga nazar solinsa, mahalla 2003-yil 1-aprelda tashkil topgan va unga "Xo'ja Xuroson" nomi berilgan. Unga qadar bir necha bosqichda hududlar qayta taqsimlanib, har xil nom va tuzilmalar bilan atab kelingan. Masalan:

1929-yildan 1970-yilga qadar "Kommunizm" kolxozi nomi ostida yer maydoni 6337 gektarli siyosiy tuzilma bo'lib, mahalla hududida 17 ta qishloq mavjud bo'lgan. Bu qishloqlarning kelib chiqishi tarixi va taraqqiyoti turli asrlarga to'g'ri kelib, qishloqlarning vujudga kelishi, rivojlanishi bo'yicha qishloqlarda yashab-ijod qilgan ziyolilar, ularning etnik jihatdan yaxshi bilgan keksalarning og'zaki tarixiga suyanib quyidagicha bayon qilish o'rinlidir.

Qishloqning "Xo'ja Xuroson" nomi bilan atalishiga sabab, eski madaniyat o'chog'i bo'lgan Xuroson, Balx, Marv kabi shaharlarning gullab yashnagan vaqtiga to'g'ri keladi. Mahalliy aholining xabar berishicha, IX asrda mazkur qishloqqa Xurosondan sayidlar va xo'jalar avlodidan bo'lgan darvesh xo'ja kelgach, qishloqqa atrofda odamlar ko'chib kelib, o'troqlasha boshlagan. Birinchi davrda qishloqqa jami 5-6 xo'jalik joylashib, ular asta-sekinlik bilan kengaydi. Qishloq 1917-yilga qadar 30 xonadondan iborat bo'lib, ular asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Aholining etnik tarkibi do'rmon, mang'it, qo'ng'irot va mo'so lardan iborat bo'lgan.

Kapkon – Xo'ja Xuroson bilan yonma-yon joylashgan qishloq. Kapkon atamasining kelib chiqishi haqida ba'zi ixtiloflik fikrlar mavjud. Uni "Gapkon", ya'ni "gap tashuvchi", "fisqi fasodchi" ma'nosida bo'lib, vaqt o'tishi natijasida "Kapkon" tarzida talqin qilingan. Yana bir ma'lumotga ko'ra, "Qopqon" so'zidan kelib chiqqanligi ta'kidlanadi. Qishloq hududining g'arbiy qismi 1930-yillarga kelib "Yangi bog'" qishlog'iga o'tib ketgan.

Tuxliboy – Xo‘ja Xurosonning shimoliy tarafidan 500 metr masofada joylashgan qishloq. Aholining asosiy tirikchiligi chorvachilikdan iborat bo‘lgan. Chiroqchining chorvadorlari haydab kelgan suruvda “oqsoq tuxli” ning mavjudligi suruvning olg‘a siljishiga halaqit bergan. Shundan so‘ng chorvadorlar qishloqning mahalliy aholisiga “oqsoq tuxli”ni so‘yib, in‘om etgan. Shundan so‘ng qishloqning nomi “Tuxliboy”, ya‘ni “Boyning tuxlisi” nomi bilan atala boshlangan. 1917-yilga qadar qishloqda 50-60 xo‘jalik istiqomat qilgan.

Govushman – qishlog‘i XV asrda vujudga kelgan. Uning nomi “Kovushmon”, “Kovushandoz” shaklida uchraydi. XIV-XV asrlarda qishloqda to‘ra va beklar aholining murojaatlarini qabul qilish uchun maxsus idoralar faoliyat olib borgan. Bu amaliyot zamonaviy xalq qabulxonalarining ilk ko‘rinishi bo‘lib, uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqalishiga dalolat beradi. Qishloqning nomlanishi bilan bog‘liq ba‘zi farazlar mavjud. Ulardan biri qishloqda murojaat qilish uchun kelgan fuqarolar uchun maxsus yo‘lak bo‘lib, unda oyoq kiyimlarini yechib yurish shart qilingan. Bundan qishloqning nomlanishida “Kavush” so‘zining istifoda etilishi, aynan shu amaldiyot bilan bog‘liq bo‘lishi tahmin etiladi. Qishloq aholisining etnik tarkibi asosan o‘zbeklardan iborat bo‘lgan.

Rabot – XI-XII asrlarda o‘z tuya, qoramol, qo‘y va echkilari bilan kelgan yirik arab chorvadorlari o‘troqlashgan qishloq. Qishloqning “Rabot”, deb atalishiga kelsak, uning arabcha “rabat” (رَبَاط) so‘zidan olingan bo‘lib, “hudud” yoki “mustahkamlanish” ma‘nosini anglatadi. Shuningdek, rabotlar odatda, poyloqchilik yoki mudofaa nuqtasi bo‘lgan qal‘alari qurilgan hududdir. Tadqiqotchi S.Abashinning fikricha, 1955-yili qishloqda 11 xonadon istiqomat qilgan bo‘lsa, 1977-yilga kelib, xonadonlar soni 8 taga kamaygan . Bundan ko‘rinadiki, ushbu qishloqning ichki va tashqi infrastrukturasini, chorvachilik hamda dehqonchilik uchun noqulayligi Xo‘ja Xuroson va Govushmon qishlog‘iga aholi migratsiyasining asosiy sababi bo‘lgan bo‘lishi kerak.

Kutan – ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil topgan qishloqlar sirasiga kiradi. Sobiq ittifoq davrida bu qishloqni chorvachilik va parrandachilikka ixtisoslashtirilib, u yerda yirik tovuqxona, molxona va qo‘yxonalar qurdirilgan. Shu bois 1945-1948-yillarda Yakkabog‘ tumani No‘g‘ayli qishlog‘idan chorvador va dehqonlar ko‘chirib o‘tkazilgan. Bu migratsiya 1955-yilgacha davom etgan . “Kutan” atamasi o‘zbekistonda ko‘p uchraydigan toponimlardan biri bo‘lib, uning ma‘nosi va paydo bo‘lishi tarixini chuqur o‘rganish uchun, qishloqning o‘ziga xos madaniy va tarixiy xosliklari, shuningdek, urf-odatlar, til va etnik guruhlarining o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega. Ba‘zi olimlar va tarixchilar “Kutan” nomini turkman yoki qirg‘iz tilidan olingan, yoki arab tilidagi “kutan” (كُتَان) so‘zi bilan bog‘liq deb taxmin qiladilar, bu so‘z “o‘simlik, ”“o‘rmon”, “chiya o‘simligi” ma‘nolarini anglatishi mumkin.

Xo‘jamurod baxshi – XIII-XIV asrlarda yashagan, o‘zlarini Shohi zinda avlodlariga mansub sanagan Shahzoda ibn Hoshim, Xo‘ja Murod ismli shaxslar Shahrisabzga kelib islom dinidan ta‘lim bergan. Ular xalq orasida obro‘ ortirishi natijasida qishloq nomi ushbu shaxs nomi bilan atalgan. Qishloqda mazkur insonlar dafn etilgan mozar mavjud bo‘lib, Xo‘jamurod nomi bilan ataladi. 1940-1950-yillarda qishloqda tegirmon, moyjuvoz, 7-yillik o‘rta maktab va Qishloq soveti idoralari faoliyat olib borgan. Bu Xo‘jamurod baxshi qishlog‘i “Komunizm” kolxozining markaziy obyektlaridan biri bo‘lganligiga dalolat beradi.

Sariosiyo – 1930 yillarga kelib, qishloqda 6-7 ta tegirmon bo‘lgan. Qishloqning nomlanishi ham aynan shu tegirmonlar bilan bog‘liq. Sariosiyo – tojikcha “sar”-bosh, katta, ulug‘, buyuk. Forscha “osiyo” – tegirmon. Fors-tojikcha sar+i+osiyo – “tegirmonning ust tomoni”, “tegirmon boshi”, ma‘nolarini anglatadi. Qadimda mahalla hududida objuvoz (suv inshoati), moyjuvoz (yog‘ ishlab chiqarish) lar mavud bo‘lib, mahalla va mahallaga tutashgan boshqa mahallalarning aholisini ham un, suv va yog‘ bilan ta‘minlab turgan.

Sinabog‘ – XI-XII asrlarda Qoraxoniylar, Chingizxonva Shayboniylar istilosidan keyin tashkil topgan. Qishloq asosan bog‘dorchilikka ixtisoslashagan. Qishloqning nomlanishi ham shunga borib taqaladi. Sinabog‘ – fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “bag‘ri”, “ko‘ksi bog‘” ma‘nosini anglatadi. Sobiq ittifoq davrida qishloq aholisining soni 184 xonadonni tashkil etishi hamda ko‘mir, sement, ohak va shunga o‘xshash qurilish materiallari saqlanadigan ombor joylaganligi, uning strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanganligidan darak beradi. Ahamiyatlisi O‘rta Osiyo temir yo‘li Qarshi-Kitob filialining stansiyasi aynan shu qishloqda joylashgan.

Natija. Mahalla va qishloqlar – jamiyatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular aholining turmush tarzi, an‘analari va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Tarixiy jihatdan mahalla va qishloqlar insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, hududiy identifikatsiyani mustahkamlash va aholi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutgan.

Mahallalar urbanizatsiya jarayonida ham o‘z mavqeini saqlab qolgan, chunki ular nafaqat an‘anaviy qadriyatlarni saqlovchi ijtimoiy tuzilma, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydigan hududiy birlik sifatida qaraladi. Qishloqlar esa agrar xo‘jalikning asosiy markazlari bo‘lib, ularda aholining ko‘p qismi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadi.

Mahalliy jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmasi turli tarixiy, etnik va madaniy omillar ta‘sirida shakllangan bo‘lib, har bir mahalla va qishloq o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, ba‘zi qishloqlar qadimiy dehqonchilik an‘analarini saqlab qolgan bo‘lsa, boshqalari hunarmandchilik yoki savdo-sotiq markazi sifatida taraqqiy etgan. Shu bilan birga, mahalla va qishloqlarning

ijtimoiy tarkibi ulardagi oilalarning mustaxkamligi, qo'shnichilik munosabatlari va umumiy jamoaviy tafakkurni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari mahalla va qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, bu jarayonlar infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va tibbiyot tizimlarini rivojlantirish, transport aloqalarini kuchaytirish kabi ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ikkinchi tomondan, bu o'zgarishlar mahalliy an'analarining susayishi, jamoaviy munosabatlarning zaiflashishi va qishloq xo'jaligi ahamiyatining pasayishi kabi salbiy oqibatlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mahallar va qishloqlar milliy va madaniy merosning muhim qismi bo'lib, ularning tarixiy va ijtimoiy rivojlanishini o'rganish jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kelgusida ushbu hududlarning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini kompleks tadqiq qilish, ularni muhofaza qilish va rivojlantirish choralari ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Mahalla – tinchlik-osoyishtalik, obodlik va farovonlik markaziga aylanadi // 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi.
2. "Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va saqlash departamentini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining Qarori // <https://lex.uz/docs/2920109>.
3. Shahrisabz tuman yer tuzilmasi hisobotining 1/I-1978-yil materiali.
4. Jo'raqulov B., Abdurahimov N., Normurodov B. Ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasi. –T.: Fan, 1994. – B. 26.
5. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – T.: Fan. 1969. – B. 112.
6. Abashin, Sergei. Soviet Kishlak: Between Colonialism and Modernization // Central Asian Affairs 4 (2017) – P. 293-304.
7. Geiss P. Mahallah and Kinship Relations. A Study of Residential Communal Commitment Structures in Central Asia of the 19th Century // CAS. 2001. Vol. 20. № 1. – P. 97-106
8. Kobil, Zakhidov. "Regulation Of The Status Of "Ahl Al-Dhimma" and "Ahl Al-Harb" In The Tax System Of Early Arab-Muslim Statehood." Pubmedia Social Sciences and Humanities 2.2 (2024).

9. Sievers E. Uzbekistan's Mahalla: From Soviet to Absolutist Residential Community Associations // The Journal of International and Comparative Law in Chicago Kent. 2002. Vol. 2. P. 91-158